



O'ZBEK TILIDAGI MAQOLLARDA "OTA-ONA" KONSEPTINING MAZMUNI

Shahrisabz davlat pedagogika institut "Pedagogika" fakulteti

Matematika va Informatika yo'nalishi

Talaba: Jurayev Nuriddin Nuroli o'g'li

Ilmiy rahbar: Xaydarova Shaxnoza Musirmon qizi

abdimurodovdoston@shdpi.uz

Annotatsiya: O'zbek tilidagi maqollar Ota-ona mazmuni: Maqollarning paydo bulishi va uning ishlatilishi, tarixiy omillar va o'zbek xalqi uchun o'ziga xos xususiyatlari haqida batafsil fikr yuritiladi. O'zbek mentalitetining o'ziga xos belgilari, ularni boshqa xalqlardan farqlantiradigan omillar haqida fikr yuritish mumkin.

Kalit so'zlar: Maqollar, O'zbek tilidagi maqollar, ota-ona tushunchasi, jamiyat, davr.

Annotation: Proverbs in the Uzbek language Parent Content: The emergence of proverbs and their use, historical factors and specific features for the Uzbek people are discussed in detail. One can think about the unique features of the Uzbek mentality, the factors that distinguish them from other nations.

Keywords: Proverbs, proverbs in the Uzbek language, concept of parents, society, period.

Аннотация: Пословицы на узбекском языке. Родительский контент: Подробно рассмотрены возникновение пословиц и их использование, исторические факторы и особенности узбекского народа. Можно задуматься об уникальных особенностях менталитета узбеков, факторах, отличающих их от других народов.

Ключевые слова: Пословицы, пословицы на узбекском языке, понятия о родителях, обществе, эпохе.

Maqol — xalq og'zaki ijodi janri; qisqa va lo'nda, obrazli va obrasiz, grammatik va mantiqiy tugallangan ma'noli hikmatli ibora, chuqur mazmunli. Muayyan aniq shaklga ega. Maqollarda avlod-ajdodlarning hayotiy tajribalari, jamiyatga munosabati, tarixi, ruhiy holati, etik va estetik tuyg'ulari, ijobiy fazilatlari mujassamlashgan. Asrlar mobaynida xalq orasida sayqallanib, ixcham va sodda poetik shaklga kelgan.



Maqollar xalqlarning o'tmishdan to hozirgi kungacha bo'lgan axloqiy-madaniy qadriyatlari, e'tiqodlari, urf-odatlar va an'analarini o'zida mujassam etgan madaniy boyliklardir. Ushbu tadqiqotda **o'zbek** xalqlarida erkaklarning otalik roli bilan bog'liq maqollar qiyosiy yo'l bilan muhokama qilinadi. Ota tushunchasiga bag'ishlangan **o'zbek** maqollarining soni juda ko'p ekanligi aniqlandi. Biroq maqolaga topilgan maqollardan ayrimlari kiritilgan. Maqoladagi "ota" tushunchasini ifodalovchi maqollar **o'zbek** tillardagi ayrim manbalar va lug'atlardan izlab topildi. O'zbek maqollari uchun "O'zbek xalq maqollari" lug'ati (Turdimov va boshqalar, 2005) asos bo'lib xizmat qildi. Ota bilan bog'liq har ikki xalq maqollari semantik jihatidan tadqiq qilindi. Natijada "ota" ifodasiga **o'zbek** xalqlarida o'xshash ma'noga ega muqaddas tushuncha sifatida qaralishi aniqlandi. Har ikki qardosh til uchun ota bilan bog'liq maqollarning o'xshash va farqli tomonlarini o'rganishga harakat qilindi.

Ona obrazi har qanday asar tarkibida uchraydi. Jumladan, o'zbek folkloridagi turli janrlar tarkibida ham buni ko'ramiz. Maqolada eng buyuk zot – **ona** obraziga maqollar timsolida to'xtalib o'tilgan va ularning ma'no – mohiyati ochib berilgan.

- Yomon farzand ota-onani yerga qaratar,
Yaxshi farzand ota-onani elga oralatar.
- Ota-onasini tanimagan tangrisini tanimas.
- Daraxtiga ko'ra — mevasi,
Ota-onasiga ko'ra — bolasi.
- Tog' yerdan o'sib chiqar,
Odam — ota-onadan.
- Ota-ona — davlating,
Farzandlaring — savlating.
- Bir qizga yetti qo'shni — ota-ona.
- Yaxshi qo'shni — ota-ona,
Yomon qo'shni — boshga balo.
- Davlating — ota-onang,
Savlating — o'g'il-qizing.
- Ota-ona duosi,
O'tga, suvga botirmas.
- Ota-onaning dog'i — oz-moz,
Farzand dog'i tinch qo'ymas.



- Ota bilan qolgan — shum yetim,
Ona bilan qolgan — gul yetim.
- Ota bo‘lmay, ota qadrini bilmas,
Ona bo‘lmay, ona qadrini bilmas.
- Otang bolasi bo‘lma,
Odam bolasi bo‘l.
- Ota g‘ayratli bo‘lsa,
Bola ibratli bo‘lar.
- Ota bo‘lish oson, odob berish qiyin.
- Bola — xizmatda, ota — izzatda.
- Ot o‘rnini toy bosar,
Ota o‘rnini — o‘g‘il.
- Bola — loy, ona — kulol.
- Ona — olam faxridir.
- Ona bilan bola — gul bilan lola.
- Ona — daraxt, bola — meva.
- Bola yig‘lamasa, ona sut bermas.

Har bir odam ikki xil tarbiya oladi: birinchi tarbiyani o‘z hayot tajribalarini singdirish yo‘li bilan ota-onaga beradi, ikkinchisi, yanada muhimrog‘ini esa unga hayotning o‘zi o‘rgatadi.

O‘z hayot tajribasini har tomonlamba boyitmagan odamning tarbiyasi - behuda.

Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir

Hayot yo‘lida birinchi masala — maktab masalasidir.

Bu hayotda har kim bo‘lishing mumkin, ammo eng muhimi INSON bo‘lmog‘ingdir.

Insonlar o‘zlarini odoblidan deb hisoblay boshlagan zahoti hayotga halaqit berishni boshlashadi.

Men besh yoshligimda onam doimo aytardilar, baxt — bu hayotda eng muhimi. Maktabga borganimda, mendan katta bo‘lganimda kim bo‘lmoqchiligimni so‘rashdi. Men shunday yozdim: "Baxtli inson bo‘lmoqchiman". Keyin menga savolni tushunmaganimni aytishdi, men esa ular hayotni tushunmasliklarini aytib javob qildim.



Inson hayoti temirga o'xshashdir. Uni ishga solganingda, u sayqallashadi, uni ishlatmay qo'ysang-chi, zang yeb qo'yadi.

Hayot uyqudir, o'limla uyg'onur inson. Sen shoshil, o'lmasdan avval uyg'on.

Inson hayotida ikki ahamiyatli kun bor: 1. Dunyoga kelgan kuni, 2. Nima uchun bu dunyoga kelganini anglagan kuni.

Hayot bu - 10% i sizga nima bo'lishi va qolgan 90% i sizning unga qanday munosabatda bo'lishingizdir.

➤ O'zbek oilasi: tarbiyaviy muhit va milliy qadriyatlar: O'zbek oilasida ota-ona, bolalar va katta avlod vakillari o'rtasidagi munosabatlar qandayligini yoritish, oilaning milliy qadriyatlarni avlodlarga yetkazishdagi roli haqida to'xtalish.

➤ Ota-onaga hurmat va ehtiromning tarbiyadagi o'rni: O'zbek madaniyatida ota-ona har doim ehtiromli va hurmatli shaxslar sifatida qabul qilinadi. Bunday hurmatning qanday an'anaviy va diniy ildizlari borligi, ular yosh avlodni tarbiyalashdagi o'rnini tahlil qilish.

➤ O'zbek oilasida ota-onaga xizmat qilish an'analari: O'zbek oilasida ota-onaga hurmat qanday ifodalanadi, ularga xizmat qilish, yordam berish kabi qadriyatlar an'anaviy turmush tarzining ajralmas qismi ekanligi haqida yoziladi.

❖ Qur'on va Hadislar asosida ota-onaga hurmat qilish va ehtirom ko'rsatish haqida diniy ta'limotlar, ularning o'zbek madaniyatidagi o'rni.

❖ Diniy qadriyatlar orqali ota-onaga xizmat qilish, ularni hurmat qilishning zarurligi, o'zbek xalqining islom dini orqali ota-onaga bo'lgan munosabati shakllanganligi haqida fikr yuritiladi.

❖ Ko'plab xalq qoshiqlari, maqollar va rivoyatlarda ota-onaga bo'lgan hurmat va xizmat tushunchasi ifoda etiladi. Shu bilan birga, bu og'zaki ijod namunalari orqali ota-onaga munosabat qanday ifodalanganligi haqida yozish.

Muqaddas Islom dini insonlarni doimo yaxshilikka chaqiradi va yomonlikdan qaytaradi. Insonlarning huquqiga nisbatan bo'ladigan har qanday tajovuzni man qiladi. Huquqlar ichida eng muhimi ota-onaning o'z farzandi zimmasidagi haqlari, farzandning o'z ota-onasi oldidagi burchidir.

Ota-ona har bir inson uchun juda mo'rtabar va e'zozlik kishilardir. Dinimiz ota-ona qanday bo'lishidan qat'iy nazar ularni hurmat-ehtirom qilishga buyuradi. Dunyoda islom dinichalik ota-onaning hurmatini yuqori qo'ygan ta'limot yo'qdir.

Ma'lumki, ota-onalar o'z farzandlarini cheksiz mehr-muhabbat va shafqat bilan tarbiya qilib o'stiradilar. Binobarin, har bir farzandning zimmasiga ham aqlan, ham shar'an o'z ota-onalariga nisbatan behisob burch va vazifalar yuklanadi. Jumladan



Qur'oni karimning bir qancha oyatlarida ota-onalarimizga yaxshilik qilishga buyuriladi.

Demak, har qanday farzand o'z ota-onasining xizmatini ado qilish bilan jannatni, ularga ozor berish bilan do'zaxni qo'lga kiritishi mumkin.

Ota-ona vafot etgandan so'ng ham farzandning burchi tamom bo'lmaydi. Balki ularning do'st va qarindoshlari bilan yaxshi aloqada bo'lishi lozim.

Rasululloh sollallohg'u alayhi vasallam: "Yaxshiliklarning eng afzali bir kishi otasi vafot etgandan so'ng uning do'stlari bilan aloqa qilishidir", deb marhamat qilganlar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: Sharq, 1992. – 37 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Harakatlar strategiyasi. – Toshkent, 2017. www.lex.uz
3. Abdimurodov D.D. Ingliz va o'zbek tillari maqol va matallarida "ota-ona" allakonsepti(gomokonsepti)ning lingvokulturologik xususiyatlari. Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – T., 2024. – 56 b.
4. Klenberg O. Tensions Affecting International Understanding. – L., 1950. – 818 p.
5. Lippman W. Public Opinion. – N.Y.,1950. – 190 p.
6. Maugham W.S. The Hour before the Down. – London, 1990. – 370 p.
7. Usmanova Sh. "Tarjimonlik faoliyatining lingvomadaniy aspektlari" fanidan ma'ruzalar kursi. – Toshkent: 2014. – 216 b.
8. Usmanova Sh. O'zbekcha va koreyscha so'zsiz muloqotning milliy madaniy xususiyatlari // International Journal of Central Asian Studies. Vol. IX. – Seoul, 2004. – B. 48-60.
9. «O'zbek Xalq Maqollari, 2005, Sharq» kitobi.